

PSIXOLOGIYADA SHAXS IDENTIVLIGI MUAMMOSINI TADQIQ QILISH

*F.O.Gafurova- OXU magistranti
Ilmiy rahbar O.R.Avezov*

Kalit s o‘zlar: shaxs nazariyalari, shaxsning tuzilishi modeli, shaxs identivligi, o‘z- o‘zini anglash, o‘zini qabul qilish jarayoni, o‘z- o‘zidan qoniqish, psixonalistik yondoshuv.

Key words: theories of personality, personality structure model, personality identity, self-awareness, self-acceptance process, self-satisfaction, psychoanalytic approach.

Annotatsiya. Ushbu maqolada shaxs nazariyalari, shaxsning tuzilishi modeli, shaxs identivligi masalalarini olimlar tomonidan o‘rganilishini tahlil qilish dolzarb masala sifatida o‘rganildi. Davrimiz insonini mustaqil fikrli shaxs sifatida har bir soniyada o‘ylashga, fikrlashga, mulohaza yuritib, o‘zi uchun xulosalar chiqarishga majbur etmoqda. Bular t o‘g’risida ishimizda bat afsil t o‘xtalib o‘tamiz.

Abstract. In this article, the analysis of personality theories, the model of personality structure, and the study of personality identity by scientists was studied as an urgent issue. Our era forces a person as an independent person to think, think, reflect and draw conclusions for himself every second. We will dwell on them in detail in our work.

Mavzuning dolzarbliyi. XXI asr bo‘sag‘asida juda ko‘plab davlatlarda bo‘lgani kabi dunyo xaritasida munosib o‘rin olgan mustaqil O‘zbekistonda ham barcha sohalarda tub islohotlar boshlandi. Bu islohotlarning barchasi inson omilini har qachongidan ham yuqori saviyaga k o‘tarib, uning kuchi, idroki, salohiyati, ruhiy hamda ma’naviy barkamolligini bevosita taraqqiyot, rivojlanish va sivilizasiya bilan uzviy bog’ladi. Bundan inson va uning mukammalligi, o‘z ustida ishlashi, shaxs va uning identivligi muammosini tadqiqi qilish har qachongidan ham dolzarb masalaga aylandi. Shaxs psixologiyasini bilish, o‘z taraqqiyotini va iqtidorini tashkil etishni bilish, har qanday yosh davrda ham optimal ravishda ishga yaroqlilikni, turli o‘zgarishlarga psixologik jihatdan tayyorlikni ta’minlash, yangicha fikrlash va tafakkur qilish, ro‘y berayotgan jarayonlarni ob’ektiv va to‘g’ri idrok qilish qobiliyatini rivojlantirish muammosini ilgari surdi.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Muammoni inson - jamiyat - tabiat - turmush munosabatlari nuqtai nazardan tekshirgan jahon psixologiyasining namoyondalari Sh.Byuler, A.Maslou, K.Rodgers, R.Olport, V.Djems, A.Gezell, L.Termen, J.Piaje, A.Vallon, S.L.Rubinshteyn, L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev,

B.G.Anan’ev kabi olimlar odamning ular bilan har xil turdag'i va k o‘rinishdagi kauzal, strukturaviy, operasional, motivasion, kognitiv, fazoviy va makoniy aloqalar tizimi mavjudligini ta’kidlab o‘tgandir. Respublikamizning psixolog olimlaridan M.G.Davletshin, E.G‘.G‘oziev, B.R.Qodirov, G‘.B.Shoumarov, V.M.Karimova, N.A.Sog‘inov, T.M.Adizova va boshqa psixologlarnining shaxs psixologiyasiga doir ilmiy ishlarida ko‘rishimiz mumkin. Bugungi kunda ham shaxs psixologiyasining dolzarb muammolarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Identifikasiya jarayoni o‘ta murakkab b o‘lib, unda shaxsning ichki tug’ma belgilariga asoslangan tasavvurlar tizimi va tashqi muhitdagi unga aloqador b o‘lgan shartli signallar o‘rtasida murakkab aloqa o‘rnataladi hamda ushbu omillarning o‘zaro dinamikasi kuzatiladi. Identifikasiya jarayonidagi ushbu ikki manba – tashqi muhitdan kelayotgan belgilar, muomala maromlari, shaxsning ichki ruhiyatidagi nasliy va somatik tizimi o‘rtasida o‘zaro uyg’unlik hamda muvofiqlik yaratiladi. Insonning ichki ruhiy hayoti xuddi uning fiziologik jarayoni singari beqiyos va doimiydir. Shu munosabat bilan inson doimo o‘z ichki dunyosini tashqi muhitga moslashtirish va u bilan uyg’unlashish maylida bo‘ladi. Aynan shunday uyg’unlashish jarayonidagi ayrim tugallanishlar, ya’ni erishilgan “yutuqlar” inson va tashqi olam muvofiqligini keltirib chiqaradi. Bunday muvofiqlik, ya’ni insonning ichki tizimi va tashqi muhitning ayrim belgisi o‘rtasidagi qisqa muddatli tugallangan o‘zaro moslik rus adabiyotida “identichnost” atamasi bilan ifodalanadi.

Nazarimizda aynan shu iborani o‘zbek tilida “muvofiglik” so‘zi bilan ifodalashimiz va ushbu muvofiqlikni ta’minlovchi jarayonni identifikasiya deb atashimiz o‘rinlidir. Umuman olganda, identifikasiya so‘zining lug’aviy ma’nosи “o‘zaro muvofiq kelish”, “mos kelish” ma’nosini anglatadi. Agar texnik yoki tibbiy sohada identifikasiya biron jarayonning natijasi sifatida talqin etilsa, ijtimoiy hodisalar misolida identifikasiya, o‘zaro moslikni o‘rnatish jarayonidir. Masalan, kriminalistikada bir jismni ikkinchisi bilan identifikasiyalash ularning o‘zaro mosligini ta’kidlash va uzil-kesil xulosa chiqarish bilan xarakterlanadi. Psixologiya fanida esa, identifikasiya deyilganda insonning bilish va hissiy sohalarining tashqi muhit ta’siridagi uzluksiz va davomiy muvofiqlashuvi tushuniladi.

Identifikasiya iborasi umumiy va ijtimoiy psixologiya fanlaridagi asosiy iboralardan biri bo‘lib, bu tushuncha orqali shaxsning ulg’ayishi va “o‘zligini” anglashi hamda o‘z hayot y o‘lini tasdiqlashida ijtimoiy ob’ektlar – shaxslar, ijtimoiy guruhlarning e’tiborli jihatlarini inobatga olish, o‘z sifatlarini o‘sha ob’ektlardagi sifatlarga solishtirish nazarda tutiladi.

Identifikasiya o‘zini o‘zga bilan qiyoslash bo‘libgina qolmay, balki o‘z- o‘zini anglash va o‘zini qabul qilish jarayoni hamdir. Sub’ekt identifikasiya jarayonida o‘ziga xos yangi jihatlarni kashf etadi va hatto ularni tadqiq etadi. Identifikasiyadagi asosiy jihatlardan biri o‘z- o‘zidan qoniqish, ya’ni sub’ektning o‘z xususiyatiga ijobiy yoki

salbiy baho bera olishidir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, identifikasiyanı tipizasiyadan avvalgi va demak, tugallangan jarayon sifatida talqin etish tor ma’no kasb etadi. Bunday yondoshuv inson ulg’ayishida uning ichki dunyosida b o‘lib o‘tuvchi hissiy jarayonlarni tadqiq etish imkoniyatini ancha cheklab q o‘yadi. Shu munosabat bilan, talqiqotimiz doirasida shaxs identifikasiyanı inson anglab borishi davomida amal qiluvchi jarayon sifatida tushunish taklif etiladi. O‘z navbatida, inson shaxsi eng muhim ijtimoiy kategoriya sifatida talqin etilar ekan, identifikasiya jarayoni sub’ekt ruhiyati uchun bir umr dolzarb b o‘lib turuvchi holatdir.

Psixologiya fanida identifikasiya (psixonalistik yondoshuv) nazariyasining fikricha yangi xulq shakllanishining aynan ijtimoiy jihatni identifikasiya jarayoni markaziy masalaga aylangan. Z.Freyd fikricha, shaxs avtonom “Men”ining kuchi turli ahamiyatli insonlar bilan bo‘ladigan o‘zaro munosabatlar natijasida shakllanadi. Masalan, sub’ektning ota-onasi bilan b o‘lgan munosabatida o‘g‘il bola o‘zini otasi bilan identifikasiyalaydi va shu identifikasiya orqali onasiga bo‘lgan munosabatini oydinlashtiradi.

Identifikasiya kategoriysi freydizm ta’limotida markaziy o‘rinni egallaydi va u “himoya mexanizmi” funksiyasidan tashqari shaxs ijtimoiylashuvi jarayonini ham ta’minlaydi.

Shaxsning yangi tajribaga ega bo‘lishi haqida fikr yuritilar ekan, identifikasiya jarayoniga murojaat etgan holda, o‘rganish bu, oddiygina taqlid qilish asosida emas, balki uzoq vaqt davomidagi o‘zaro munosabatlar natijasida internalizasiya jarayonining amalga oshishidan iborat ekanligini ta’kidlamoqchimiz.

Aynan shu sababli fanda *identifikasiya, internalizasiya, introeksiya va inkorporasiya* tushunchalari farqlanadi, lekin ularning hammasiga xos bo‘lgan umumiy tomon - bu tashqi muhit bilan aloqaning mustahkamlanishi natijasida undagi biron hodisaning assimilyasiysi, ya’ni qo‘silish, qorishib ketishi va adaptasiysi, ya’ni moslashuvi orqali ichki rejaga aylanishidan iboratdir. «Identifikasiya» so‘zining «internalizasiya», «introeksiya» va «inkorporasiya» tushunchalari bilan umumiy tomoni – ushbu tushunchalar shaxs psixologik holatini ta’riflar ekan, doimo tashqi olam ta’sirining ichki ruhiy holatga o‘tishi jarayonini anglatadi.

Identifikasiya tushunchasiga izoh berilar ekan, doimo inson va tashqi muhit orasidagi ma’lum masofa, ichki va tashqi, sub’ekt va ob’ekt munosabatlari nazarda tutiladi. Shu ma’noda Z.Freydning quyidagi fikri alohida ahamiyat kasb etadi: tashqi ta’sir tufayli yuzaga keladigan shaxslararo munosabatlar identifikasiyada o‘z aksini topadi. Zamonaviy psixoanalizda identifikasiya kategoriysi ijtimoiy fanlardagi k o‘plab qonuniyatlarni tahlil qilishda keng qo’llanilishi bilan diqqatga sazovordir. Masalan, Emde o‘z taddiqotlariga yakun yasar ekan, ijtimoiy munosabatlar ahamiyatini ta’kidlagan holda, chaqaloq hayotining boshidanoq muloqot uchun yaratilgan, deb hisoblaydi. Lekin ijtimoiy munosabatlarga bunday e’tibor, individni

ijtimoiy muhitning ta'sir ob'ektiga aylantirib q o'yishi ehtimoli bor.

Keyinchalik psixoanalitik y o'nalishdagi tadqiqotlarda identifikasiya mavzusi bir qancha yangi fikrlar bilan boyitildi. Xususan, proaktiv "o'z- o'zini identifikasiyalash" iborasi M.Klayn tomonidan kiritildi va bunda sub'ekt o'zini o'zga bilan muvofiqlashtirar ekan, anglanmagan tarzda o'zgaga zarar yetkazish, unga ega bo'lish yoki uni nazorat qilish maqsadini qo'yadi, deb ta'kidlandi. Bu jarayon sub'ekt ichida tashkil topayotgan fantazmlar hisobiga shakllanadi va ob'ektga nisbatan agressiv munosabatning bir shakli sifatida namoyon bo'ladi. Keyinchalik M.Klayn o'z fikrini biroz yumshatgan holda proaktiv identifikasiyani sub'ektning o'zidan tashqaridagi ob'ekt ichida joylashuvi sifatida talqin etadi.

Ushbu olim tomonidan kiritilgan boshqa bir tushuncha – "Introyektiv identifikasiya" b o'lib, bunda o'zga odam sub'ektning ichida mavjud deb yoki uning bir qismi sifatida tasavvur etiladi.

Mamlakatimiz psixologlari tomonidan shaxs identivligi mavzusida olib borilgan ishlar qatoriga oila psixologiyasi, yosh davrlari psixologiyasi fanlari doirasidagi tadqiqotlarni kiritishimiz mumkin.

Ayniqsa, bu borada G'.B.Shoumarov tahriri ostida chop etilgan "Oila psixologiyasi" kitobi, V.M.Karimovaning "O'zbek yoshlarida oila to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlar shakllanishi" mavzusidagi doktorlik bitiruv malakaviy ishisidagi ma'lumotlar, E.G'. G'oziev tomonidan o'g'il va qiz bolalar ulg'ayishidagi psixofiziologik farqlar, B.R. Qodirov tomonidan shaxs ulg'ayishidagi irsiy omillar muammolarini tadqiq etilishi, F.A.Akramovaning nomzodlik bitiruv malakaviy ishisidagi o'g'il va qizlardagi idrok va hissiy holatlar differensiasiyasi va boshqa qator ishlarni qayd etib o'tish lozim.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, shaxsning murakkab tuzilishga ega bo'lgan ko'p qirrali xususiyatlari, fazilatlari, xislatlari o'zaro bir-birlarining ichiga singib ketganligi natijasida tabiiy, emotsional, ehtiyojlar, munosabatlar, xulq-atvor usullari to'g'risidagi mulohazalar umumlashmalar umumlashmasidir. Chunki qiziqishlar va ideallarni intellektual, emosional, irodaviy xususiyatlarisiz tasavvur qilish mumkin bo'lмаганидай, munosabatlar va xulq-atvor usullari ham alohida hukm surishi g'ayritabiyy holatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Гамезо А. «Атлас по психологии» Москва 2001г.
2. Davletshin M. G. «Umumiy psixologiya» T-2000y.
3. Karimova V. M. «Psixologiya» T.Sharq 2002y.
4. Немов Р. С. «Психология» Т. 1.М. 1998г.
5. Petrovskiy A. V. «Umumiy psixologiya» « O'qituvchi», 1992y.
6. **Avezov O.R. Ekstremal vaziyatlarda psixologik xizmat Darslik,"KAMOLOT" nashriyoti, 2023 yil. 332 bet.**

7. Avezov O.R. Ekstremal vaziyatlarda shaxsning stressli holati va xulq-atvor reaksiyaları. Psixologiya. № 4 son(2020) Buxoro. 2020. B. 94-98.
8. Avezov O.R. Psyshologisal relations between family members. Sscientifis Journal Impast Fastor. VOLUME 2 | ISSUE 2. ISSN 2181-1784. SJIF 2022: 5.947 February 2022 www.oriens.uz. P-945-949
9. Avezov O.R. Mental Status and Behavioral Reastions in Emergensi. and Extreme Emergencies AMERISAN JOURNAL OF SOSIAL AND HUMANITARIAN RESEARSH. ISSN: 2690-9626 Vol.3, No 1, 2022. <https://www.grnjournals.us/index.php/AJSHR/artisle/view/714>
10. Avezov O.R. Ta'lim- tarbiya jarayonida agressiv xulqli bolalar ota- onasi bilan ishlashning o‘ziga xos psixologik jihatlari. “O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati qurish sharoitida shaxs ma’naviy madaniyatini shakllantirishning falsafiy omillari” //Respublika ilmiy–amaliy anjumani materiallari// Farg‘ona, 2017 y. B. 248-251.
11. Avezov O.R. Mutaxassislikka kirish. Darslik,”Durdon” nashriyoti, 2021 yil. 243 bet.
12. Avezov O.R. Deviant xulq-atvor psixologiyasi. Darslik, ” Buxoro viloyati bosmaxonasi” nashriyoti, 2019 yil. 495 bet.
13. Avezov O.R., SH.R. Barotov, L.YA. Olimov. Psixologiya nazariyasi va tarixi. Darslik. “O‘zbekiston faylasuflari jamiyati” nashriyoti. Toshkent. 2019 yil. 492 bet.
14. Avezov O.R. L.YA. Olimov, A.M. Nazarov. Shaxs psixologiyasi. Darslik. “Durdon” nashriyoti Buxoro. 2019 yil. 340 bet.
15. Avezov O.R. Masofaviy ta’limda o‘quv faoliyatini tashkil qilishda ekstremal vaziyatlarning psixologik tahlili. “Masofaviy ta’limni tashkil etishning pedagogik-psixologik jihatlari”. //Xalqoro ilmiy–amaliy anjumani materiallari// Toshkent, 2021 y. B. 501 - 504.